

LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

LINGUISTIC HERITAGE AND DEVELOPMENT OF LINGUISTICS



XALQARO ILMIY-AMALIY

KONFERENSIYA

Andijon

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2023-yil, 15-may

Andijon

MUNDARIJA

**TIL TADQIQIDA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR: KOGNITIV
TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA,
LINGVOKULTUROLOGIYA, SOTSIOLINGVISTIKA,
LINGVOPOETIKA, PSIXOLINGVISTIKA**

САЙФУЛЛАЕВА Раъно Рауфовна

Замонавий ўзбек тилшунослигининг янги талаблари..... 3

LUTFULLAYEVA Durdona, NARXODJAYEVA Xurshida

Rasmiy akt turlari va ularning qo‘llanish o‘rinlari..... 7

ҲАКИМОВ Муҳаммадхон

Тилшуносликнинг қиёсий-тарихий, систем-структур ва антропоцентрик
илмий парадигмалари..... 12

ISKANDAROVA Sharifa, MIRZATILLAYEVA Sayyora

Fitrat asarlarida qo‘llanilgan arabcha o‘zlashmalar semantikasiga doir..... 15

BOBOKALONOV Ramazon Rajabovich

Neyropsixolingvistika: shaxsiyatning rangin jilosi..... 19

САБИРОВА Мухлиса

Газета матнларида субъектив баҳонинг ифодаланиши..... 26

РАНИМОВ Usmonjon Ergashevich

Presuppozitsiya va aktual bo‘linish..... 33

САГИДОЛДА Гульгайша, ЗҰЛПЫХАР Ақнұр

Ясауи «Хикметтериниң» тілі және лингворухани код мәселесі..... 42

НОСИРОВ Шерзодбек Исмагуллаевич

Особенности медийных текстов и их разнообразие..... 50

SHIRINOVA Yekaterina Turakulovna

Axborot almashinuvining psixolingvistik jihatlar..... 55

SHODIYA Ganiyeva Azizovna

Frazeologik birliklar transformatsiyasi haqida..... 58

KOMILOVA Gulmira Temirovna

Mubolag‘aning poetik nutqda qo‘llanishi va uning o‘zbek tilshunosligida
tadqiqi..... 60

MURATOVA Nafisa Baxtiyarovna

Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy(paralingvistik)
vositalardan foydalanishi..... 63

G‘ANIYEVA Dilafruz Xasanboy qizi

“Ta’lim” mikromaydonida “Baholash” semasini ifodalovchi lisoniy vositalar. 67

<i>O'NG'AROVA Komila Murot qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Ta'lim sifatini oshirishda videodarslarning ahamiyati.....	341
<i>AXADOVA Sevara Toxir qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Ot va sifat so'z turkumlarini o'qitish metodikasi.....	344
<i>TURG'UNPO'LATOV Diyorbek, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Ta'lim jarayonini zamonaviy yondoshuv asosida tashkil etish.....	347
<i>AIMBETOVA Muqaddas Alisher qizi</i>	
Til o'rgatishda aborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning psixolingvistik jihatlari.....	350
<i>JALOLIDDINOVA Mushtariybonu Jamoliddin qizi</i>	
O'zbek tilida eponimizatsiyaga oid mulohazalar.....	353
<i>RAVSHANJONOVA Sitora Jahongir qizi</i>	
Ona tili darslarida pisa testlaridan foydalanish.....	357

TATBIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI

<i>МЎЙДИНОВ Қодиржон</i>	
Суд нотиклиги ҳақида.....	360
<i>ИСМОИЛОВ Хурматилло Тўлқинжон ўғли</i>	
Суд мажлисида раислик қилувчи нутқининг расмий нутқ услуби доирасида чегараланиши.....	362
<i>ЭРГАШЕВ А.</i>	
Неотопонимлар хусусидаги мулоҳазали муаммолар.....	365
<i>ТЎРАХЎЖАЕВА Адибахон, Абдусатторова Фарангиз</i>	
Ўзбек орфографиясининг шаклланиш жараёнлари.....	370
<i>NO'MONOVA Yulduz Umarjon qizi</i>	
Davriy nashrlar tili xususida mulohazalar.....	373
<i>HASANOVA Sanobar Farxod qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i>	
Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanishi.....	377
<i>AXMEDOVA Aynura Quanishbay qizi</i>	
Zamonaviy internet terminlari.....	380
<i>OZODOVA Barchinoy Jamol qizi, MURATOVA Nafisa</i>	
“Shajarayi turk” asarida etnik nomlarning qo'llanilishi.....	383
<i>ODAMBAYEVA Umida Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa</i>	
Til tarixida gumon olmoshining qo'llanilishi va taraqqiyoti.....	385

QIYOSIY VA TARIXIY TILSHUNOSLIK

ЕСКЕЕВА Мағрина Кайнарбаевна

Паремиологические параллели в казахском и узбекском языках..... 388

HAMIDOVA Kamola Mamirovna

Andijon polisonimi va uning variantlari xususida..... 395

ШУКУРОВА Зилола, Азизулло Орол

Ўрта осиеда баёз тузиш анъанасининг пайдо бўлиши..... 398

KABULJONOVA G.

O'zbek va qirg'iz tillarida qo'llanuvchi mushtarak iboralar xususida..... 401

AXMADJONOVA Dilbaroy Alisher qizi

"Qutadg'u bilig" asarida qo'llanga ayrim arxaiik leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari..... 404

KARIMOVA Charosxon Ibroximjon qizi

Munisning "Kerakmasmu sanga?" radifli g'azalida qo'llangan o'zlashma so'zlar..... 406

MURODOVA Firuza Jalolovna

Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy vatanparvarlik nutqi..... 409

MADRAHIMOVA Zumrad Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiyning turkiy til taraqqiyotidagi hissasi..... 411

ORTIQBOYEVA Shahrizoda Mamadiyor qizi, MURATOVA Nafisa

XIX-XX asrlar adabiy til xususiyatlari..... 414

RAJABBOYEVA Go'zal Arabboyevna, MURATOVA Nafisa

Abdurauf Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari..... 416

SA'DULLAYEVA Aziza Qadamboy qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiy asarlarida sinonimlarning qo'llanilishi..... 419

ALTIBOYEV Yuldosh Ergash o'g'li

Mahmud Koshg'ariy - turkiy til tadqiqotchisi va uning asari haqida..... 421

BAXRAMOVA Nodira Amandillovna

Vertikal harakat fe'llarining ma'no tuzilishi..... 425

SHEVASHUNOSLIK VA AREAL LINGVISTIKA

СОБИРОВ Абдулхай Шукирович

Ўзбек халқ лаҳжалари ва шеваларини ўрганиш янги босқичда..... 428

DARVISHOV Ibrohim

Sheva, etnos va til munosabatlari..... 433

ЧИНИҚУЛОВ Н.

Yana bir urug' nomi bu Qo'niqqimar elidir. "O'rmavit uruqindin bir kishi bor erdi. Aning uch o'g'li bor erdi. Ulug'iga xalq Qo'niqqimar ot qo'ydi. Qo'niqning ma'nosi ulug' temak bo'lur. Bu vaqtda ham ulug' qarg'ani qo'niq qarg'a derlar. Qimarning ma'nosi burun, ul kishining burni bisyor ulug' erdi. Aning uchun Qo'niqqimar laqab qoldi. Barcha qo'niqqimar uruqib kishining nasli turur" [1; 38].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, turkiy xalqlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Tarqoqlik, birlashish, yagona til va shunga o'xshash sivilizatsiyaning ko'plab shakllarini birlikda qabul qilishgan. Abulg'oziy Bahodirxonning „Shajarayi turk" asari esa ushbu jarayonlar haqida batafsil va aniq hikoya qilib beradi. Asar qabilalar etimologiyasini o'rganishda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ularni o'rganish esa, tariximizni, xonliklarimizni yanada yaxshiroq bilishga yordam beradi. Shu boisdan ham asar nafaqat tarixiy balki, tilshunoslik nuqatayi nazaridan ham o'z qadr- qimmatini yo'qotmay yanada oshirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulg'oziy. Shajarayi turk. T.: Cho'lpon. 1992, 187-b
2. Begmatov E. Mustaqillik va toponimiya. O'zbek tili va adabiyoti//2009, 5-son. 9-12-b
3. Qorayev S. Toponimika. Toshkent, 2006
4. uz.m.wikipedia.org
5. elib.buxdu.uz

TIL TARIXIDA GUMON OLMOSHINING QO'LLANILISHI VA TARAQQIYOTI

Odambayeva Umida Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gumon olmoshining eski o'zbek tilida qo'llanilgan shakli va uning hozirgi kundagi ko'rinishidan farqli tomonlari ochib beriladi. O'xshash taraflari haqida fikr yuritiladi.

Abstract: In this article, the form of the suspect pronoun used in the Old Uzbek language and its differences from today's appearance will be revealed. Similar aspects are discussed.

Аннотация: В данной статье будет раскрыта форма местоимение подозрительного, употреблявшаяся в староузбекском языке, и ее отличия от сегодняшнего облика. Обсуждаются аналогичные аспекты.

Kalit so'zlar: olmosh, turkiy tillar, gumon olmoshi, birä, falän .

O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumining ahamiyati muhim. Olmoshlar semantik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlaridan

farq qiladi. Olmosh ot, sifat, son va ba'zan boshqa so'z turkumlari, so'z birikmalari o'rnida qo'llanilib, predmet va unga xos bo'lgan belgining mavjudligini ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida olmoshlarning yettita (kishilik, ko'rsatish, o'zlik, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik, gumon) ma'noviy turi mavjud. Har biri tilimiz sathida o'z vazifasiga ega. Ulardan ko'pchili asrlar mobaynida o'zgarishsiz qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa, ayrimlari o'zgarishlarga uchragan. Xususan, gumon olmoshlari hozirgi ko'rinishidan biroz farq qilgan.

Eski o'zbek tilida gumon olmoshlarining quyidagi shakllari iste'molda bo'lgan: *kimsä, kimersä (kimärsä), nimersä, neersä, birägü, biräv, falan*.

Gumon olmoshlarining bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qo'llanadi, ba'zilar har ikkala ma'noda ham ishlatiladi.

Gumon olmoshlarining *kimsä, kimärsä, birägü, biräv* shakllari shaxsga nisbatan qo'llanadi.

Kimsä, kimärsä shakllari bir olmoshning ikki xil ko'rinishidir. *Kimsä* shakli *kimersä* shaklining qisqargan shakli bo'lib, *kimärsa* o'z navbatida *kim* so'roq olmoshiga *ersä* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan: *kim+ersä > kim-ersä (kimersä) > kimsä*.

Kimsä gumon olmoshi eski o'zbek tili taraqqiyotining deyarli hamma davrlarida iste'molda bo'lgan. Lekin uning qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi: *Qalmag'ay g'amda kimseniñ jänü* (Navoiy, SS). *Bir kimsä yoq ki, bolmag'ay anda sorag'da* (Munis) [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008, 165-bet]. Keltirilgan misollar orqali gumon olmoshiga xos ayrim xususiyatlar **XV III-XIX** asrlarda ham **XV** asrdagi kabi qo'llanilganligini ko'ramiz.

Gumon olmoshining *kimersä* shakli XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ancha xarakterli bo'lib, keyingi davrlarda deyarli qo'llanmagan: *Kimersä kim, senä egri көңül tutar bu qadar...* (Sakkokiy).

Gumon olmoshining *birägü, biräv* shakllari bir xil manba asosida shakllangan: *biräv* shakli *birägü* shaklidan rivojlangan: *birägü > biräü > biräü, birägü* shakli o'z navbatida *bir* soniga *-ägü* affiksi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan.

Biräv gumon olmoshining yozuv yodgorliklarida qo'llanishi **XV** asrdan boshlab kuzatiladi: Kuymagan bolsa biräv mehru muhabbat ötig'a (Muqimiy).

Gumon olmoshining *neersä, nimärsä* shakllari hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi (nimadir, allanima) narsa, jonivorlar voqea-hodisalarga nisbatan ishlatilgan.

Neersä gumon olmoshi *ne* so'roq olmoshiga *ersä* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. Bu olmosh kam qo'llangan bo'lib, ayrim manbalardagina uchraydi: *Bir neersäni men qıldachı-men* (Tafsir).

Gumon olmoshining *nimärsä* shakli *nima* so‘roq olmoshiga *ersä* qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan: *nime* + *erse* > *nimä* (*e*)*rsä* > *nimärsä*. Bu shakl XV asrdan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda qo‘llangan: *Meni qolumg‘a...g‘ayri mukarrar nimärsälär tushdi* (Furqat).

Falān gumon olmoshi shaxsga ham, narsa, voqea-hodisalarga nisbatan ham qo‘llanadi. Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham keyingi davrlarda ham shu ma‘noni ifodalovchi gumon olmoshi sifatida ancha keng iste‘molda bo‘lgan: *Bu bitigni falān ayda, falān kündä, falān yilda bitildi* (QR). *Derlar: falān falāng‘a āshiq bolubtur* (Navoiy, MQ).

Yozuv yodgorliklaridan ma‘lum bo‘lishicha, gumon olmoshlari turkiy tillar taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlarida yuzaga kelgan. Masalan, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ham, qadimgi turkiy tiliga oid manbalarda ham gumon olmoshi qo‘llanmagan. XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig”da gumon olmoshining *birägü* shakli uchraydi. Boshqa shakllarning yozuv yodgorliklarida qo‘llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008, 166-167-betlar].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, gumon olmoshining ahamiyati hozirgi o‘zbek tili uchun qanchalik muhim bo‘lsa, eski turkiy til va eski o‘zbek tili davri uchun ham shunchalik muhim bo‘lgan. Lekin hozirgi kunda *kimärsä*, *nimärsä*, *kimsä* kabi olmoshlar eskirgan va kitobiy uslub tiliga xos bo‘lib qolgan. Yuqorida keltirilgan olmoshlardan *biräv* hozirgi kunda ham adabiy tilda faol qo‘llaniladi (birov shaklida). Shuningdek, *falon* gumon olmoshidan ham hozirgi kunda foydalanamiz. Ammo u ko‘proq badiiy va publitsistik asarlarda, shevalar hamda ularga oid manbalarda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – T.: Navoiy universiteti, 2019. – 61-b.
2. Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh, Mahmudov Q. – O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. 165-167-b.
3. <https://tafakkur.net/kim-desun-radifli-gazal/muhammad-aminxoja-muqimiy.uz>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sakkokiy-gazal-qasida.html>